



Journal of Uzbekistan's Development and Research (JUDR)

Journal home page: <https://ijournal.uz/index.php/judr>

KREATIV YONDASHUV ASOSIDA O'QUVCHILARDA MA'NAVIY DUNYOQARASHNI KENGAYTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI

Umarov Bahriiddin¹

Sanoqulova Farangiz²

Alfraganus universitet

KEYWORDS

Ma'naviyat, yoshlar, dunyoqarash, maktab, tarbiya, madaniyat, ta'lim, barkamollik, ong, sifat, o'quvchi.

ABSTRACT

Mazkur maqolada o'quvchilar ma'naviyatini shakllantirish omillari, bunda oila, maktabning roli haqida yoritib o'tilgan. Ma'naviy dunyoqarashni shakllantiruvchi vositalar qatorida turli xil ta'lim, tarbiya, madaniy tadbirlar, sport va musiqaning o'rniiga to'xtalib o'tiladi.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: [10.5281/zenodo.15273372](https://doi.org/10.5281/zenodo.15273372)

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Mamlakatimizda barkamol avlodni shakllantirish, yoshlarni ma'naviyaxloqiy va jismonan sog'lom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Jumladan, mакtabgacha ta'larning zamonaviy tizimi, 11 yillik umumiy o'rta ta'lim joriy qilinmoqda, zamonaviy oliy ta'lim muassasalari hamda nufuzli xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilmoqda. Yoshlarning bandligini ta'minlash va ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb qilish bo'yicha ishlarni mutlaqo yangi tizim asosida tashkil etish va amalga oshirish maqsadida "Yoshlar — kelajagimiz" Davlat dasturi qabul qilindi. Yoshlar bilan doimiy muloqot qilish mazkur sohadagi dolzarb muammolarni aniqlash va hal etishda davlat organlari va jamoat tashkilotlari faoliyatining ajralmas qismiga aylanib bormoqda.

Tarbiya va ta'limga bir-biridan alohida ajratib bo'lmaydi, bu ikki jarayon o'zaro uyg'un, uzuksiz asosda tashkil etilgandagina odobli, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma'naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog'lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi bo'lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.08.2018-yildagi PQ-3907-sonli "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy

¹ Alfraganus universitet Pedagogika fakultet "Pedagogika va psixologiya" kafedrasи professor(DSc).

² Alfraganus universiteti 1-bosqich magistranti.

va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish choratadbirlari to'g'risida" gi qaroriga ko'ra yoshlar ma'naviy dunyosini shakllantirish va tarbiyalash uchun qator vazifalar belgilab berilgan. Jumladan:

" Ommaviy axborot vositalari, kino, teatr va musiqa san'atida yoshlar o'rtasida xalqimiz ma'naviyatini, milliy istiqlol g'oyasini targ'ib qilishga, bugungi islohotlarning mohiyatini yoritishga qaratilgan tizimli ishlarni tashkil etish;

Ta'lim muassasalarida yoshlar teatr studiyalarini tashkil etish. Yoshlarning ilmiy duyoqarashini kengaytirish, tabiiy va texnik fanlarga bo'lgan qiziqishini qo'llab-quvvatlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo'yicha bilimini oshirishga qaratilgan ilmiy-ommabop "Intellektual taraqqiyot" televizion ko'rsatuvini tashkil etish;

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida fanlarni namunalni o'zlashtirayotgan, ijobiy xulq-atvorini namoyon etgan yoshlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish, ularning yutuqlarini ommaviy axborot vositalarida boshqalarga o'rnak sifatida targ'ib qilish;

Yoshlar o'rtasida milliy g'oyani targ'ib qilish, ularda davlat ramzlari va milliy qadriyatlarga hurmat hissini uyg'otish, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyatini yoshlarga yetkazish;

Yoshlarga oid davlat siyosatini belgilab beruvchi qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholi, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib qilish;

Yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash"² kabilar o'quvchi yoshlarni ma'naviy tarbiyalab borish va ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishga yo'naltirilgan

O'zbekistonda yoshlar tarbiyasini zamonaviy asosda ilmiy-texnologik isloh qilish borasida olib borilayotgan ishlar uni bugungi kun ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ilmiy asoslangan tayanch kompetensiyalar, fazilatlar asosida shakllantirishni talab etmoqda. Tarbiyaga yangicha, tizimli yondashuv, bolada tayanch fazilatlarni kafolatli shakllantirishda oila, maktabgacha ta'lim, umumiylar ta'lim, o'rta rta maxsus kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalari, mahallalarning ijtimoiy-pedagogik imkoniyatlarini to'liq yuzaga chiqarishni va ular orasida ilmiy-metodik uzviylikni yangi darajaga ko'tarishni taqozo etadi.

Hozirda ma'naviyat tushunchasiga ko'p bora duch kelmoqdamiz. "Ma'naviyat" (arabcha "ma'nolar majmui") - kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmuidir. Demak, ushbu ta'rifdan kelib chiqib ayta olamizki, ma'naviy tarbiya bu – universal tarbiya demakdir, chunki u o'z tarkibiga tarbiyaning barcha turlarini qamrab oladi. Tarbiya yosh avlodni jamiyatda yashashga maqsadli tayyorlash jarayoni bo'lib, maxsus tashkil etilgan davlat va jamoat instituti orqali amalga oshiriladi, jamiyat tomonidan nazorat qilinadi va tuzatishlar kiritib boriladi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya yagona ijtimoiy tarbiya jarayonining tarkibiy qismidir.

Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyatyengilmas kuch" asarida "...kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha qilib aytganda,

2 "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-3907-sون 14.08.2018-yil.

xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishini farzandlarimizning bugun qanday ta'lif va tarbiya olishiga bog'liq"³ deb ta'kidlagan.

O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish ularning ma'naviy dunyosini, ongini, axloqiy hislarini, shaxsiy sifatlari va xulqini tarbiyalash hamda rivojlantirishni taqozo etadi. 2020/2021-o'quv yilidan boshlab umumiy o'rta ta'lif maktablarida "Tarbiya" fani yangi o'quv fani sifatida o'qitilib kelinmoqda. "Tarbiya" fani orqali o'quvchilarda ma'naviy tarbiya indikatorlari va kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiluvchi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lif mazmuniga keng singdirish tarbiyachilar zimmasiga quyidagi talablar yuklatildi:

O'quv fanlari doirasidagi ma'naviy tarbiya indikatorlarini amaliyatga joriy etish, ularni amaliyatda qo'llay olish imkonini beruvchi amaliy mashq va topshiriqlar bilan boyitish (ma'naviy-axloqiy kompetensiyalar), muvaffaqiyatga erishishga intilish motivining shaxs ustuvor xususiyati sifatida mustahkamlanishi, bolaning o'z xulq va faoliyatini ongli nazorat qilishini kuchaytirish, o'zining va atrofdagilarning xulqi, xatti-harakatlariga munosabat bildirish, mehnatsevarlikka o'rgatish, bilimlarning kengayishi, chuqurlashuvi, ma'naviy-axloqiy ko'nikma va malakalarning rivojlanishi, ijtimoiylashuv jarayonida talab etiladigan yoshiga mos shaxsiy fazilatlarni shakllantirish, kasblar to'g'risida tasavvurlarni kengaytirish, kasbga va mehnatga qiziqtirish, vijdonan mehnat qilish ko'nikmalarini o'rgatish, mehnatning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyatini ko'rsatish, muvaffaqiyatga erishish motivlarini kuchaytirish, o'zini-o'zi baholashga o'rgatish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o'rganish va hokazo.

O'quvchi-yoshlar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirish asosiy masalalardan bo'lib, bunda umumiy o'rta ta'lifda o'qitilayotgan musiqiy ta'lifning ham o'rni beqiyos. Musiqa madaniyati fani ham o'z oldiga bir necha vazifalarni qo'yib, "musiqiy asarlarning badiiy-g'oyaviy mazmuni vositasida o'quvchilarda axloqiy-estetik qarashlarni tarbiyalash"⁴ o'quvchilar ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda musiqaning yetakchi rolini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lif-tarbiya berish tizimini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori PQ-3907-som 14.08.2018-yil
2. Ho'jayeva M. Umumta'lif maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil
3. Umarov E., Karimov M., Mirsaidova M., Oyxo'jayeva G. Estetika asoslari. Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2009-yil
4. Sharipova G. Asanova D. Xodjayeva Z. "Musiqa o'qitish nazariyasi metodikasi va maktab repertuari". Toshkent. 2014-yil

3 I. Karimov "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". Ma'naviyat nashriyoti, Toshkent., 2008. 61-bet.

4 Ho'jayeva M. Umumta'lif maktablarida musiqa o'qitish metodikasi. O'z.D.K.tahrir-nashriyot bo'limi. Toshkent., 2008-yil. 10-11-bet.